

NAQISHBANDIYA TARIQATI ILMIY MEROSI ORQALI YOSHLARNING MA'NAVIYATITINI OSHIRISH

Jakbaraliyev Ulug'bek Nodirbek o'g'li

Ichki Ishlar vazirligi Akdademiyasi, 2-bosqich kursanti

Mamlakatimiz rivojlanish taraqqiyotining bugungi bosqichida oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni har tomonlama mukammal, bilimini va ma'nan yetuk etib tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. So'ngi yillarda ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar pedagogning malakasi, kasbiy mahoratiga, uning ma'naviy dunyoqarashiga bo'lgan talabni yangicha talqinda ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu vazifani ta'lim tizimini isloh qilish va o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Ta'lim sifatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi davrda, yetuk pedagog kadrlarni tayyorlash masalasi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omili sifatida etirof etilmoqda.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, tariqat, tasavvuf, tarkidunyochilik, diniy qadriyat, allomalar, mutaffakirlar, ateistik tarbiya.

“Islom dini rivoji yolida beqiyos xizmat qilgan buyuk bobolarimizning diniy va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib etish maqsadida Samarqandda - Imom Buhoriy, Surhondaryoda – Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, Toshkentda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Motrudiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ish olib bormoqda. Toshkent shahrida barpo etilayotgan O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi halqimizning boy diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadigan ilm-ma'rifat markaziga aylanadi.

Biz hozirgi murakkab va shiddatli zamonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni va ta'siri tobora ortib borayotganini hisobga olib, bu sohadagi faoliyatimizni yanada kuchaytirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz.” Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” hamda “Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamgarmasining tashkil etish to'g'risida” 2021 yil 26-martda qabul qilingan Prezident qarorlari aynan shu sohadagi vazifalarni samarali hal etishga qaratilganidir.

Yangi O'zbekiston nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda barcha sohalar qatorida ma'naviy-ma'rifiy masalalarga oid tashabbuslarni ham dadil o'rta qo'ymoqda. Bu haqida so'z yuritganda, mamlakatimiz tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilish bo'yicha ilgari surilgan tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Sobiq sho'rolar davridagi dinsizlik, ateistik tarbiya ma'naviyatimiz rivojlanishida kata bo'shliq hosil bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu davrning eng kata insonlar ongiga ta'siri ham

diniy ilmni dunyoviy ilmdan ajratish va dinni insonning eng kata dushmani sifatida ko'rsatish bo'ldi.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan ushbu uzoq yillar davomida insonlar qalbidan yulib olingan azaliy qadriyatlarimiz, dinimizni qaytarish va azizu-avliyolarimizni maqbaralarini tiklash kabi juda savobli ishlarga qol urildi.

Yurtimizdan chiqqan ulug' allomalar, muttafakirlar, Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, xalqimizning ma'naviyati va ma'rifatiga chuqur ta'sir o'tkazgan Islom dini keying davrlarda ham hech qachon o'z qo'lidan mutlaq hokimiyatni to'plamagan, balki doimo hukimdorlar yonida jamiyatning ahloqiy qonuni rolini o'ynagan, ma'rifiy ,tarbiyalash va mehr-shavqat, insonparvarlikka da'vat qiluvchi funksiyasini bajargan. Eng birinchi galda e'tiqodni, halol turmush, pok ruhiyat va ilm asosida komillikni yoqlagan, shunga yetaklovchi kuch bo'lgan.

Hozirgi mustaqillik zamonida "Yassaviya", "Kubroviya", "Naqshbandiya" kabi o'lkamizda (Turkistonda) vujudga kelgan tariqatlar endi bizda ham har tomonlama chuqur o'rganila boshlandi. Hoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro va Xo'ja Bahouddin Naqshband singari mutasavvuf donishmandlarning poklik, to'g'rilik, mehr-shavqat, adl-u insof, iymondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umumbashariy fikrlari davrimizga hamohang bo'lib, kelajak uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari tog'risida"gi va 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tariosh to'g'risida"gi Qarorlari, jahon svilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan yurtimizda yetishib chiqqan mutaffakirlarning ma'naviy merosidan hozirgi zamon fan va ta'lim, tarbiyani rivojlantirishda qo'llash zaruriyatini tug'dirdi. Bunda jumladan, yurtimiz va musulmon dunyosida juda katta obro'ga ega bo'lgan Naqshbandiya tariqati misolida erishmog'imiz mumkin.

Naqshbandiya tariqatining asl mohiyati inson kamolotidir. Bu konsepsiyasini Najmiddin Komilov "Tasavvuf" nomli asarlarida yortigan.

"Inson uchun qayg'urish, uning ma'naviy kamolotini o'ylash tasavvufning doimiy o'zak masalasi bo'lib kelgan. Insonning hayotdagi o'rni, jamiyat bo'lib yashash tartiblariga ham shu mavqedan turib qaralagan. Chunonchi, ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiati va siyratidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mavh etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi. Tasavvufchilar inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan "Nafs" va "Nafsi ammora" deb atadilar va unga qarshi urush e'lon qildilar. Mol dunyo to'plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirs-u havas qat'iy qoralandi, insonni noqislik va falokatlardan qutqarishninig birdan bir to'g'ri yo'li nafsni o'ldirib, qanoat bilan halol yashash,

ruh-irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni ya'ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ'ib qilindi.

Hozirgi kunda diniy va dunyoviy bilimlarmi uzviy bog'lab, milliy qadriyatlarimizni unutmagan holda ularni yoshlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirish ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi

Naqshbandiya tariqati hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmadi. "Ommaviy madaniyat" boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonni ham qamrab olgan bir davrda biz yoshlar milliy qadriyatlarimiz, jumladan Naqshbandiya tariqati haqidagi bilimlar orqali ilm olishga, hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarimizni oshirishimiz lozim. Diniy qadriyatlar yolg'iz diniy qoidalar, ko'rsatmalar, tamoyillardan iboratgina bo'lib qolmay, kishilar o'rtasida ma'naviy-axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa munosabatalarning ham ifodasidir. Bahouddin Naqshband yosh avlodning mehnat tarbiyasiga to'xtalar ekan, kasb hunar orqali halol luqma topish lozimligini alohida ta'kidlagan. Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyasi sifatida insonni yuksaklikka eltuvchi aql-idrok va mehnat yotadi. Bahouddin Naqshband o'zining taavvuf talimoti bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirish va musulmon xalqlari madaniyatining taraqqiyoti hamda rivojiga ulkan hissa qo'shgan pirlarimizdan biridir.

Shu sababli naqshbandiya tariqati ilmiy merosini yoshlarimiz orasida keng targ'ib etish va buning natijasida uning ustoz-shogird an'analari, shogirdning ma'naviy va kasbiy ko'nikmalarni oshirish uchun tinmay o'z ustida ishlashga, barkamol shaxs sifatida kamol topishiga yordam berish nuqtai nazardan o'rganish zarurati tug'ildi. Zero buyuk ajdodlarimiz ma'naviy-ma'rifiy merosi, ulkan tajribasi, qadriyat va an'analari hozirgi davr avlodlari uchun buyuk maktab vazifasini o'tamog'i lozim.

Yuqoridagi barcha fikrlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda diniy meros va milliy qadriyatlarni o'rganishga bo'lgan talabni ortirishi ushbu mavzuni chuqurroq tahlil etishni taqozo etadi;
2. Yoshlar tarbiyasida diniy merosimiz, jumladan naqshbandiya tariqati ilmiy merosidan foydalanish va ushbu merosni zamonaviy talqinda yoshlar ongiga yetkazish usul va uslublarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi;
3. Naqshbandiya tariqatining halollik, poklik, jamiyatparvarlik kabi g'oyalarini yoshlarga singdirish va bu orqali ularda kasb-hunar egallashga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirish lozim;
4. Dunyoviy davlatda diniy bilimlar, jumladan naqshbandiya tariqati ilmiy merosini o'rgatish orqali yoshlarning ma'naviy kamolot darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi;
5. Diniy qadriyatlar va zamonaviylikni uygun holda rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, ajdodlar merosidan yoshlarni xabardor etishimiz lozim;